

MUMTOZ ADABIY MATNLARNI O'RGANISHDA IZOHLI LUG'ATLARNING ILMIY AHAMIYATI

Abduraximova Muxlisa

Annotatsiya

Ushbu tezisimizda mumtoz adabiy matnlarni o'rganish jarayonida izohli lug'atlarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Mumtoz asarlarda uchraydigan tarixiy, arxaik, umumturkiy, arabiy va forsiy-tojikcha so'zlarning mazmunini anglashda lug'atlar muhim vosita sifatida xizmat qilishi tahlil etilgan. Matnni sharhlab o'qish jarayonida notanish so'zlar ma'nosini aniqlash, ularni lug'at daftari asosida o'zlashtirish, ma'nodosh va ko'chma ma'noli birliklarni izlash o'quvchilarning matnni o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga yordam berishi asoslangan. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridan boshlangan lug'atchilik an'analari hamda mumtoz adabiyot namunalarini tushunishda shakllangan lug'aviy manbalarning ilmiy qiymati haqida fikr yuritilgan. Izohli lug'atlar nafaqat alohida so'z ma'nosini ochib beruvchi manba, balki muayyan davr tili, adabiy muhiti va tarixiy-madaniy jarayonlarini anglash imkonini beruvchi ilmiy vosita sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, mumtoz matn, izohli lug'at, lug'atshunoslik, sharh, sharhlab o'qitish, badiiy matn, matnni o'qib tushunish, tarixiy so'zlar, arxaik so'zlar, lug'aviy izoh, matn tahlili, Alisher Navoiy, lug'at bilan ishlash, o'qish savodxonligi.

Abstract

This thesis highlights the scientific and practical significance of explanatory dictionaries in the process of studying classical literary texts. It analyzes the importance of dictionaries as an essential tool for understanding the meanings of historical, archaic, Common Turkic, Arabic, and Persian-Tajik words found in classical literary works. It is substantiated that, in the process of guided and interpretive reading, identifying the meanings of unfamiliar words, learning them through a vocabulary notebook, and searching for synonymous and figurative meanings contribute to the development of students' reading comprehension skills. The thesis also discusses the scholarly value of lexicographical traditions that originated with Mahmud al-Kashgari's *Dīwān Lughāt al-Turk*, as well as the significance of lexical sources developed to facilitate the understanding of classical literary works. Explanatory dictionaries are evaluated not only as sources that reveal the meanings of individual words, but also as scholarly tools that provide an opportunity to understand the language of a particular period, its literary environment, and historical and cultural processes.

Keywords: classical literature, classical text, explanatory dictionary, lexicography, commentary, teaching through interpretive reading, literary text, reading comprehension, historical words, archaic words, lexical explanation, text analysis, Alisher Navoi, dictionary use, reading literacy.

Аннотация

В данном тезисе освещается научное и практическое значение толковых словарей в процессе изучения классических литературных текстов. Проанализировано, что словари служат важным средством для понимания значения исторических, архаичных, общетюркских, арабских и персидско-таджикских слов, встречающихся в классических произведениях. Обосновано, что в процессе комментированного чтения определение значения незнакомых слов, их усвоение на основе словарной тетради, а также поиск синонимичных и переносных значений способствует развитию у учащихся навыков осмысленного чтения и понимания текста. Кроме того, рассмотрены научная ценность традиций лексикографии, берущих начало с труда Махмуда Кашгари «Дивану лугат ат-турк», а также значение лексикографических источников, сформировавшихся для понимания образцов классической литературы. Толковые словари оцениваются не только как источник, раскрывающий значение отдельных слов, но и как научный инструмент, позволяющий глубже понять язык определённого периода, литературную среду и историко-культурные процессы.

Ключевые слова: классическая литература, классический текст, толковый словарь, лексикография, комментарий, обучение комментированному чтению, художественный текст, понимание прочитанного, исторические слова, архаичные слова, лексикографическое толкование, анализ текста, Алишер Навои, работа со словарём, читательская грамотность.

Kirish

Mumtoz adabiyot namunalari xalqning ko'p asrlik ma'naviy, ilmiy va badiiy tafakkurini o'zida mujassamlashtirgan bebaho manbalardan biridir. Biroq bunday asarlarni bugungi kitobxon tomonidan to'liq anglash har doim ham oson kechmaydi. Buning asosiy sabablaridan biri mumtoz matnlarda hozirgi adabiy tilda kam qo'llanadigan yoki iste'moldan chiqqan so'zlar, tarixiy atamalar, umumturiy birliklar hamda arabiy va forsiy-tojikcha o'zlashmalarning keng uchrashidir. Shu sababli mumtoz matnni o'rganishda uning mazmunini shunchaki o'qish bilan cheklanib qolmasdan, matndagi lug'aviy birliklarning ma'nosini aniqlash, ularni tarixiy va adabiy kontekst bilan bog'lash muhim hisoblanadi.

Mumtoz asarlarni tushuntirishda qadimdan shakllangan sharh an'anasi alohida ahamiyat kasb etgan. Sharh matnni anglashga yordam beruvchi vosita bo'lib, unda murakkab so'z va iboralar izohlanadi, asarning mazmuni ochib beriladi hamda ayrim badiiy va ma'naviy jihatlar tushuntiriladi. Tursunova qayd etganidek, murakkab matnlarni sharhlash jarayonini lug'atlarsiz tasavvur qilish qiyin, chunki matndagi so'z ma'nosini bilmasdan uning umumiy mazmunini to'liq anglash imkoniyati cheklanadi. Demak, lug'at sharhlab o'qishning yordamchi vositasi emas, balki matn mazmunini ochishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy manbalardan biridir.

O'zbek lug'atchiligining uzoq tarixga ega ekanligi ham mazkur masalaning ilmiy asoslarini ko'rsatadi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridan

boshlangan lug'atchilik an'anasi keyingi davrlarda turli maqsadlarga xizmat qiluvchi lug'atlarning yaratilishi bilan davom etgan. "Muqaddimat ul-adab", "Badoi ul-lug'at", "Mador al-afozil", "Muntaxab ul-lug'at", "Sanglo" kabi manbalar turli davrlardagi so'z boyligi va til xususiyatlarini anglashda muhim ahamiyatga ega. Bunday lug'atlar orqali nafaqat so'zning ma'nosi, balki uning qo'llanish doirasi, tarixiy shakli va adabiy manbalardagi ifodasi haqida ham tasavvur hosil qilish mumkin.

Bugungi ta'lim jarayonida ham badiiy va mumtoz matnlarni o'qib tushunishda lug'atlar bilan ishlashga alohida e'tibor berish zarur. Mamlakat Ibodovaning tadqiqotlarida badiiy matnlar tahlilida lug'atlardan foydalanish o'quvchilarning matnni tushunish ko'nikmasini rivojlantirish bilan bog'liqligi ko'rsatiladi. Ayniqsa, mumtoz va tarixiy matnlarda uchraydigan notanish so'zlarni aniqlash, ularning ma'nosini izohli lug'atdan topish, ma'nodoshlarini izlash va lug'at daftariga qayd etish kabi topshiriqlar o'quvchining mustaqil ishlash faoliyatini kuchaytiradi. Bu jarayon so'z boyligini kengaytirish bilan birga, matn mazmunini chuqurroq anglashga ham zamin yaratadi.

Shuningdek, lug'atlar muayyan davrning til manzarasini o'rganishda ham muhim ilmiy manba hisoblanadi. Vohid Abdullayevning so'z tarixi bilan jamiyat tarixining uzviy bog'liqligi haqidagi fikri lug'atlarning tarixiy ahamiyatini yanada yaqqol namoyon etadi. Chunki muayyan davrda qo'llangan so'zlarning ma'nosi, shakli va mazmuniy o'zgarishlarini o'rganish orqali o'sha davrning ijtimoiy, madaniy va adabiy muhitiga oid muayyan xulosalarga kelish mumkin. Shu jihatdan izohli lug'at mumtoz matnni tushuntirish vositasi bo'lish bilan birga, til va adabiyot tarixini tadqiq etish uchun ham muhim manba vazifasini bajaradi.

Mazkur tezisning asosiy maqsadi mumtoz adabiy matnlarni o'rganish jarayonida izohli lug'atlarning ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib berish, tarixiy, arxaiik, umumturkiy, arabiy hamda forsiy-tojikcha so'zlarning mazmunini anglashda lug'atlardan foydalanish imkoniyatlarini yoritish hamda lug'at bilan ishlashning matnni o'qib tushunish va tahlil qilishdagi samaradorligini asoslashdan iborat. Shu maqsad asosida mumtoz matnlarni sharhlab o'qishda lug'atlarning o'rni, ularning so'z ma'nosini aniqlash, matn mazmunini ochish va o'quvchilarning mustaqil fikrlash hamda lug'aviy kompetensiyasini rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Mumtoz adabiyot va lug'atchilik tarixining o'zaro bog'liqligi ham izohli lug'atlarning ilmiy qiymatini ko'rsatadi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridan boshlangan lug'atchilik an'anasi keyingi asrlarda yaratilgan ko'plab lug'atlar orqali rivojlangan. "Badoi ul-lug'at", "Mador al-afozil", "Muntaxab ul-lug'at", "Sanglo" kabi manbalar mumtoz adabiyot tilini o'rganish, so'zlarning tarixiy ma'nolarini aniqlash va badiiy matnlarni tushunishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida lug'at bilan ishlashni tizimli tashkil etish o'quvchilarning o'qish savodxonligi, so'z boyligi, mustaqil izlanish va matnni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Demak, izohli lug'atlarni mumtoz matnlarni o'rganish jarayoniga izchil tatbiq etish nafaqat matn mazmunini o'zlashtirishni yengillashtiradi, balki o'quvchilarda milliy adabiy merosga qiziqish va uni tarixiy-madaniy jihatdan anglash ko'nikmasini ham shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, mumtoz adabiy matnlarni o'rganishda izohli lug'atlar muhim ilmiy va metodik vosita hisoblanadi. Mumtoz asarlarda uchraydigan tarixiy, arxaiik, umumturkiy, arabiy va forsiy-tojikcha so'zlarning ma'nosini bilish matn mazmunini to'g'ri anglashning muhim shartlaridan biridir. Shu sababli bunday matnlarni sharhlab o'qishda lug'atlardan foydalanish o'quvchi va tadqiqotchiga asarning mazmuniy qatlamlarini chuqurroq ochish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunova M. Madrasalar ta'limida adabiyot o'qitish usullari. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2017. - 35 b.
2. Dolimov U. Milliy uyg'onish pedagogikasi. - Toshkent, 2012. - 52 b.
3. Komilov N. Ma'nolar olamiga safar. - Toshkent: Tamaddun, 2012. - 4 b.
4. Abdullayev V. O'zbek mumtoz adabiyoti. - Toshkent: Fan, 2003. - 165 b.
5. Qodirov V. Umumta'lim maktablarida mumtoz adabiyot namunalarini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. - Namangan, 2019. - 128 b.
6. Komilov N. Bu qadimiy san'at. - Toshkent: G'afur G'ulom, 1988. - 114 b.

